
“Soliqchi - ko‘makchi” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan O‘zbekiston tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘ining hisoboti

Jonajon O‘zbekistonimiz milliy rivojlanishning yangi davriga dadil qadam qo‘ymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida, xususan, soliq tizimida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yil boshida QQS summasini qaytarishning asosiligi yuzasidan kameral soliq tekshiruvini o‘tkazish muddati 30 kungacha [qisqartirildi](#).

QQS bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning amal qilishini to‘xtatib turish tartibi bekor qilindi. Endilikda faqat bitta holatda amalga oshirilayotgan bitimlar(opersiyalar) xarid qilinayotgan va realizatsiya qilinayotgan tovarlar (xizmatlar) nomenklaturasiga nomuvofiq bo‘lgan holatlarda QQS guvohnomasining amal qilish muddati to‘xtatib turilishi mumkin.

Foyda solig‘i bo‘yicha har oy bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari daromadining chegaraviy miqdori 5 mlrd so‘mdan [10 mlrd so‘mga oshirildi](#).

- Kameral soliq tekshiruvi jarayonida quyidagilar taqiqlandi:
 - soliq to‘lovchining hududiga kirish;
 - soliq to‘lovchining hududini va binoalrini ko‘zdan kechirish;
 - soliq to‘lovchidan hujjatlarni talab qilib olish va uni chaqirtirish;
 - soliq to‘lovchining hujjatlari va buyumlarini olib qo‘yish.

QQSni qoplash (qaytarishda) o‘tkaziladigan kameral soliq tekshiruvi bundan mustasno.

- 2024-yil 1-yanvardan:
 - iqtisodiy sudlar tomonidan soliq organlari ishtirokida ko‘rilayotgan ishlar ma‘muriy yurisdiksiyaga o‘tkaziladi;
 - soliq majburiyatlari bo‘yicha da‘vo muddati 5 yildan 3 yilgacha qisqartiriladi.

• **Soliq tizimini mahallaga tushirish bo‘yicha.**

Soliq tizimini mahalla darajasigacha tushirish, soliq ma‘murchiligi bilan bog‘liq muammolarni hal etish, norasmiy faoliyat yuritayotgan sub‘ektlarga qonuniy ishlash afzalliklari va tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlarni tushuntirgan holda “soyadan chiqarish” orqali Davlat byudjetiga qo‘shimcha daromad manbalarini aniqlash va mahalliy byudjetga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha ishlarni olib boradi.

O‘zbekiston tuman bo‘yicha soliq inspeksiyasining

25 nafar mas‘ul xodimlari tuman bo‘yicha barcha **73 ta** MFYlarga biriktirilib, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab olindi.

Xususan, 2023-yil oktabr oyi davomida O‘zbekiston tuman soliq inspeksiyasi tomonidan 420 ta tadbirkorlik subyektlarini qiynayotgan muammolar o‘rganildi. Mazkur jarayon davomida ko‘maklashish zarur bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qo‘llash tartibini tushuntirish, ortiqcha to‘lovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar ko‘rsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari tadbirkorlar bilan hamkorlikda ishlashga, soliq qonunchiligiga oid zarur yordamlarni ko‘rsatishga hamisha tayyormiz. Soliq tizimiga oid

qo'shimcha savollar bo'lsa, "Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash" sho'basi ishonch telefoniga (73-539-18-06) qo'ng'iroq qilishingiz mumkin. Murojaatingiz qisqa fursatlarda o'rganib chiqiladi va javob beriladi.

"Davlat soliq xizmati – insofli soliq to'lovchining ishonchli hamkori" tamoyili doirasida siz bilan hamkorlikka tayyormiz!

Ulug'bek Fozilov

O'zbekiston tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i

2023-11-10 15:58:21